Qo‘rg‘onboyev Shukrillo Maxmudillo o‘g‘li
Andijon Qishloq xo'jalik va agrotexnologiyalar instituti Gumanitar fanlar kafedrasi assistenti

IJTIMOIY ONG DARAJALARI VA SHAKLLARI

Annotatsiya : Ushbu maqolada biz ong , ijtimoiy ong , ijtimoiy ong darajalari, ijtimoiy ong shakllariga bir qator tushunchalar izohlar berganmiz. Ularga hayotiy misollar bilan yoritganmiz.

**Kalit so`zlar :** ong, ijtimoiy ong . inson , aql , idrok, sezgi, hissiyot, siyosiy ong, millat, davlat, fan ,olim , din , nazariyalar, fikr , g`oya .

Аннотация: В данной статье мы разъяснили ряд понятий сознания, общественного сознания, уровней общественного сознания, форм общественного сознания. Мы просветили их примерами из жизни.

Ключевые слова: сознание, общественное сознание. человек, разум, восприятие, интуиция, эмоция, политическое сознание, нация, государство, наука, ученый, религия, теории, мысль, идея.

Abstract: In this article, we explained a number of concepts of consciousness, social consciousness, levels of social consciousness, forms of social consciousness. We enlightened them with real life examples.

Key words: consciousness, social consciousness. human, mind, perception, intuition, emotion, political consciousness, nation, state, science, scientist, religion, theories, thought, idea.

Ong bu psixik faoliyatning oliy shakli bo`lib , u faqat insonga xos fenomendir. Ong va uning mohiyati masalasi eng qadimgi muammolardan biri bo`lib kelmoqda[1]. Dastlabki

[1] https://uz.wikipedia.org/wiki/Ong

dunyo faylasuf olimlari Ongni dastlab diniy va mifologik qarashlar doirasida tushuntirishga uringanlar. Ongni diniy tushuntirish uni ilohiy hodisa, xudo yaratgan mo‘jiza tarzida talqin qilishga asoslanadi. Ko‘pgina dinlarda inson ongi buyuk ilohiy aqlning namoyon bo‘lish shakli tarzida tavsiflanadi. Bunday qarashlarning ildizi juda qadimiy bo‘lsada, ular hamon o‘zining ko‘plab tarafdorlariga ega. Kimki olam va odam yaratilganligini tan olar ekan, ong ham yaratganning qudrati deb hisoblaydi.

Aslida ong tarixi insonning inson bo‘lib shakllana boshlashi tarixi bilan bog‘liqdir. Inson ham biologik, ham ijtimoiy mavjudot ekan, demak, ong ham biologik va ijtimoiy taraqqiyot mahsulidir. Ong insonning fikr va hislari, sezgilari, tasavvurlari, irodalari va karashlaridan tashkil topgan.ongning asosiy jihatlari esa O‘z-o‘zini anglash, xotira, iroda, nutqdir.

Individual ong bu ayrim shaxsning ongi bo`lib, unda davr, sinf, millat va, shuningdek, individual hayot sharoitlari ta’sirida shakllangan shaxsning ma’naviy dunyosi. Individual ong ijtimoiy ong bilan uzviy bog‘langan, chunki har bir shaxs muayyan jamiyatda, muayyan ijtimoiy muhitda yashaydi, shuning uchun uning ongi ijtimoiy ongning ifodasidir[2]. Ammo Individual ong ijtimoiy ongdan ajralmas bo‘lsada, har doim ham ijtimoiy ongning ma’lum bo‘lagi bo‘lavermaydi. Har bir shaxsning vokelikni idrok etishi, uni qabul qilishi, ma’lum bilimlar tizimiga ega bo‘lishi ijtimoiy taraqqiyot bilan izohlansa-da, uning o‘ziga xos tomonlari mavjud. Buni kishilarning bilimi, xulqi va boshqa xususiyatlaridagi har xillikda ko‘ramiz.

Ijtimoiy ong esa tabiiy voqelikning in‘ikosi jamiyatning muayan davriga tegishli bo`lgan his tuyg`ular, kayfiyatlar karashlar, g`oyalar, nazariyalar majmuasidir. Ijtimoiy ong jamiyatni o`z-o`zini ijtimoiy borlig`ini va uni qurshab turgan vokealikni anglashidir. U jamiyatdagi axloqiy, siyosiy, huquqiy, falsafiy, diniy, estetik qarashlar va kechinmalar shaklida namoyon bo`ladi. Ijtimoiy ong va ijtimoiy borlik bilan chambarchas bog`lik. Jamiyat ijtimoiy ong bo`lmasa shakllana va rivojlana olmasdi. Ijtimoiy o`zgarishlar bilan bir qatorda ijtimoiy ong ham o`zgarib rivojlanib boraveradi. Ijtimoiy ong xam o`z taraqqiyotida

[2] https://uz.wikipedia.org/wiki/Individual_ong

nisbiy mustaqillik xarakteriga va ijtimoiy voqelikka faol aks ta‘sir eta olish xususiyatga xam egadir.

Ijtimoiy ongning nisbiy mustaqilligi karashlar g`oyalar, nazariyalarining rivojlanishidagi vorislikda namoyon bo`ladi. Kishilarning ma‘naviy madaniyati xech narsa yo’q yerdan yangidan barpo etilmaydi. Kishilarning xozirgi davrda mavjud bo`lgan tasavvurlari karashlari g`oyalari ilgari yaratilgan tafakkur xazinasi asosida vujudga keladi. Xar qanday kishi muayyan soxada o`zidan ilgari yaratilgan barcha bilimlarni chukur o`rganishi asosidagina olim bo`la oladi, kashfiyot qila oladi. Insonlar tomonidan asrlar davomida vujudga keltirilgan barcha qimmatli ma‘naviy boyliklardan foydalanganligi tufayli kishilar o`z xayotining xamma tomonlarini shu jumladan ijtimoiy ongni xam uning shakllarini xam rivojlantirish imkoniga ega bo`ladilar.

Ijtimoiy ong shakllari xilma-xil bo`lib, ularning xar biri o`ziga xos xususiyatlarga egadir. Ijtimoiy ong shakllariga axloqiy, estetik, diniy, siyosiy, huquqiy, falsafiy, iqtisodiy va ekologik onglar kiradi[3]. Ijtimoiy ongning bu shakllari nima uchun ajratiladi, yoki ularni qanday mezon asosida farqlanadi degan savolga quyidagicha javob berib o`tamiz. Ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy ong shakllarini farqlashning to`rtta mezoni ajratilgan bo`lib,Avvalo, ijtimoiy ong shakllarining xilma-xilligi ob‘ektiv olamning turli-tumanligidan, vokelikning muayyan tomonlarining aks ettirishidan kelib chiqishni kursatish zarur. Demak ijtimoiy ong shakllari birinchi navbatda, o`zlarining aks ettirish obyektiga ko`ra farqlanadi.

Masalan: Siyosiy ong, sinflar, millatlar, davlatlar o`rtasidagi munosabatlarni, xokimiyatga munosabatni aks ettirsa, huquqiy ong huquqiy munosabatlarni aks ettiradi.

Ikkinchidan ijtimoiy ong shakllari bir-biridan vokelikni aks ettirish usuliga ko`ra xam ajralib turadi.

Masalan: fan voqelikni tushunchalar, gipotezalar (ilmiy taxminlar), nazariyalar shaklida aks ettirsaa, san‘at vokelikni badiiy obrazlar shaklida aks ettiradi.

Uchinchidan ijtimoiy ong shakllari o`rtasidagi farqni ular rivojlanishning o`ziga xosligida xam ko`rish mumkin.Bunga fan tarakkiyoti ob‘yektiv olim xaqidagi yangi-yangi

[3] https://fayllar.org/ijtimoiy-ong-shakllari.

bilimlarning yuzaga kelishi, chukurlashib, kengayib borishi, dinning rivojlanishi, uning ijtimoiy soxalariga, kishilar faoliyati va turmush tarziga ta‘sirining o`sib borishi bilan xarakterlanishi yaqqol misol bo`la oladi.

Turtinchidan ijtimoiy ong shaklari o`zlari bajaradigan funktsiyalarning o`ziga xosligi bilan xam farq qiladi. Xar bir ijtimoiy ong shakli bajaradigan funktsiyalar (vazifalar) tizimida bittasi asosiy, markaziy sistema yaratuvchi funktsiya sifatida chiqarish kuzatiladiki, boshka funktsiyalar ana shu funktsiya atrofida birlashadi. Masalan: fanda-bilish, axlokda-tartibga solish, dinda—dunyokarash, san‘atda-tarbiyaviy funktsiyalar ana shunday sistema yaratuvchi funktsiyalar sifatida chikarish mumkin.

Ijtimoiy ongning barcha shakllariga bilish, tarbiyalash, kadrlash kabi funktsiya xosdir. Yuqorida qayd etilgan ijtimoy ong shakllari o`rtasidagi mezonlar faqat ularni birgalikda olingandagina ularni farqlashga xizmat qilishi, metodologik axamiyatga ega bo`lishi mumkin. Kishilik jamiyati taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida ijtimoiy ongning barcha shakllari to`liq bo`lmagan. Jamiyatda muayyan extiyojlar va ma‘naviy ishlab chiqarishning yangi soxalari paydo bo`lishi bilan ijtimoiy ongning yangi shakllari ajralib chiqa boshlaydi. Shuning uchun xam, yuqorida qayd etilgan ijtimoiy ong shakllarini tugal deb xisoblab bo`lmaydi. Masalan so`nggi paytlarda ijtimoiy ongni mustakil shakli sifatida ekologik ong paydo buldi. Ijtimoiy ong shakllari xususida fikr yuritganda kuyidagilarga aloxida e‘tibor berish maqsadga muvofiqdir:

Ijtimoiy ong shakllari kishilar ijtimoiy borlig`ini aks ettiribgina qolmasdan, nisbiy mustakillikka xam egadir.Ijtimoiy ong shakllarining o`zaro mustaqilligi, xar birining o`ziga xos xususiyatlariga ega ekanligida namoyon bo`ladi. Ijtimoiy ong shakllari bir-biri bilan dialektik aloqadorlikdadir. Buni biz ularning o`zaro bir-biriga ikkinchisini mazmunan boyitishida ko`ramiz.

Masalan: Siyosiy va huquqiy ongning axloqiy va falsafiy ongga, ularning esa o`z navbatida diniy va estetik ongga ta‘siri va aks ta‘siri bunga misol bo`la oladi. Ijtimoiy ong shakllaridan umummilliy axamiyatga ega bo`lgan chuqur mazmun, muxim g`oya va insoniy qadriyatlar mavjuddir.

Ijtimoiy ong shakllaridan xar birini olib taxlil qilganimizda, unda aloxida bir xalk, yoki millatning emas, balki butun insoniyatning asrlar davomida qo`lga kiritgan bilim boyliklari, boy hayotiy tajribalari, amaliy faoliyatlari yakunlari aks etganligini ko`ramiz. Sobik ittifok davrida ijtimoiy ong shakllarining sinfiy va partiyaviyligi xaqida xaddan tashkari ko`p gapirildi, ammo ularning umuminsoniy axamiyatga egabo`lgan jixatlari xususida deyarli farq yuritiladi. Mustaqilliq sharofati tufayli bunday biryoqlamalikka chek qo`yilmokda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, «***Albatta, erishayotgan barcha yutuqlarimiz, inson qadri ulug‘ bo‘lgan diyor – Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidagi dastlabki natijalardir. Biz bunyodkor xalqimiz bilan birga bunday ezgu ishlarni davom ettiramiz va oldimizga qo‘ygan katta-katta marralarga albatta erishamiz…..*** Asrlar davomida et va tirnoq kabi bir bo‘lib ketgan xalqlarimiz do‘stligiga hech qanday kuch ta’sir ko‘rsata olmaydi. Chunki bizning o‘tmishimiz bir, bugunimiz ham, kelajagimiz ham bir……

Biz jonajon Vatanimizning xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta’minlashga har tomonlama qodirmiz. Tinch va osoyishta hayotimizni asrab, mustaqilligimizni mustahkamlab, barqaror taraqqiyot yo‘limizni jadal davom ettiramiz!»[4].

Foydalanilgan adabiyotlar :

1.SH.Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Tosh.: “O’zbekiston”, 2017.

2.O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2017 yil 7-fevral – Xalq so’zi, 2017 yil 8-fevral.

3.Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. I –kitob. T.: Sharq, 2004.

4.Falsafa (M. Ahmedova va boshqalar). Darslik. T., 2006.

[4]Sh.M.Mirziyoyev 2023 yil murojaatnomasidan. https://review.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn

5.Falsafa: qomusiy lug'at. T.: Sharq, 2004.

6.Tulenova K.J. va boshqalar. Falsafa. O'quv-uslubiy majmua. TDPU. 2012

7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ong

8. https://uz.wikipedia.org/wiki/Individual_ong

9. https://review.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn